

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ISLAMOVA ZEBINISO BUSTONOVNA

“*BIEBERSTEINIA MULTIFIDA*”NING MORFOBIOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Islamova Zebiniso Bustonovna

*“Biebersteinia multifida”*ning morfobiologiyasi..... 3

Исламова Зебинисо Бустоновна

Морфобиология *“Biebersteinia multifida”* 21

Islamova Zebiniso Bustonovna

Morphobiology of *“Biebersteinia multifida”* 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ISLAMOVA ZEBINISO BUSTONOVNA

“*BIEBERSTEINIA MULTIFIDA*”NING MORFOBIOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B808 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xojimatov Olimjan Kaxxarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Keldiyarov Xudoyar Atamuradovich
biologiya fanlari nomzodi, professor

To'xtayev Boboqul Yerqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.09.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" sentabr kuni soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: www.samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (95 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" sentabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "16" sentabr № 9 sonli reyestr bayonnomasi).



T.F. Rajabov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori

A.N. Xujanov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
(PhD), dotsent

A.R. Jabborov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy smenar raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqiyosida insonlar tomonidan tabiiy dori darmonlar va giyohlardan tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi tabiiy flora xilma-xilligini saqlash, ularni muhofaza qilish hamda zaxiralarini barqaror ravishda tiklash masalalari dolzarb sanaladi. Dorivor o'simliklardan olinadigan xomashyoning farmatsevtika hamda turli sanoat yo'nalishlarida keng miqyosda qo'llanilishi ushbu biologik resurslarni har tomonlama ilmiy tadqiq etish va ulardan oqilona foydalanish masalasining dolzarbligini oshirmoqda. Dorivor preparatlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida ayrim qimmatli va istiqbolli o'simlik turlarining tabiiy zaxiralari qisqarib bormoqda. Shu sababli ularning morfobiologik va bioekologik xususiyatlarini kompleks o'rganish, samarali ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tabiiy populyatsiyalarga salbiy ta'sir etuvchi omillarni cheklash bugungi kunning muhim ilmiy vazifalaridan biri sanaladi.

Jahonda kamyob turlarning tabiiy populyatsiyalarini ko'payish imkoniyatlarining cheklanganligi, ularning antropogen ta'sir yuqori bo'lgan hududlarda tarqalganligi, iqlim o'zgarishlari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, dorivor o'simliklar tarqalgan hududlarni aniqlash, ularning sanoatbop zaxiralarini baholash, shuningdek, *in situ* va *ex situ* sharoitlarida populyatsiyalarini saqlash va ko'paytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, muhofaza qilishning zamonaviy strategik usullarini qo'llash, dolzarb masalalardan biri bo'lib ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikamizda dorivor o'simliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish, biologik xususiyatlarini kompleks o'rganish, introduksiya, akklimatizatsiya hamda reintroduksiya tadbirlarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek farmatsevtika sanoati va xalq tabobati uchun zarur xomashyolarini yaratish, o'simlik plantatsiyalarini barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar mazkur sohaning ustuvor va strategik yo'nalishlardan biri hisoblaniladi. Shuningdek, mavjud resurslardan samarali foydalanish va ularni saqlab qolishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada takomillashtirish zarurati amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida o'simlik resurslarini saqlash, ularning tabiiy zaxiralarini tiklash va samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi..."¹ va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu o'rinda, jumladan o'simliklarning populyatsiyalarini saqlab qolish hamda ularni plantatsiyalarini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tabiiy florada uchraydigan, qadimdan xalq tabobatida qo'llaniladigan, ammo ilmiy jihatdan kam o'rganilgan o'simliklardan biri - *Biebersteinia multifida* hisoblanib mazkur tur xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda uzoq yillar davomida qo'llanib

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

kelinayotganiga qaramay, uning morfobiologik xususiyatlari, ontogenetik rivojlanish bosqichlari, fitosenotik tarkibdagi oʻrni hamda ekologik xususiyatlari hozirgi kunga qadar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli “Yovvoyi holda oʻsuvchi dorivor oʻsimliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, 2022-yil 20-maydagi PQ-251-sonli “Dorivor oʻsimliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda va boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti maʼlum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ustuvor yoʻnalishi” doirasiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon miqyosida *B. multifida* oʻsimligi Eron va Xitoy hududlarida anʼanaviy tabobatda uzoq tarixdan buyon qoʻllanib kelinib, turli kasalliklarni davolashda foydalanilganligi haqida ilmiy maʼlumotlar mavjud. D.D.Vassiliades, C.Morton va F.T.Bakker (1998) ishlarida *B. multifidaning* molekulyar sistematikasi, klassifikatsiyasi va evolyutsion kelib chiqishi oʻrganilgan. Anʼanaviy tabobatda qoʻllanilishi haqidagi maʼlumotlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar orqali ham tasdiqlangan. Xususan, soʻnggi yillarda olib borilgan farmakologik izlanishlar natijalariga koʻra, *B. multifida* inson organizmiga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatishi aniqlangan. H.Farsam, M.Amanlou, A.Reza Dehpour va F.Jahaniyanilar (2000) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar *B. multifida* ildizining anʼanaviy xalq tabobatida ogʻriq qoldiruvchi va yalligʻlanishga qarshi ishlatilishi boʻyicha laboratoriya sharoitida hayvonlar ustida tadqiqotlar olib borgan.

J.Q.Liu, T.N.Ho, S.L.Chen va A.Lular (2001) tomonidan turning kariomorfologiyasi taxlil qilinib, ilk bor bu oʻsimlikning xromosoma tuzilishi batafsil tasvirlangan. *Biebersteinia* turkumining filogenetik xarakterini yaʼni evolyutsion qarindoshligini aniqlash va sistematik oʻrni A.N.Muellner, D.D.Vassiliades va S.S. Rennerlar (2007) tomonidan amalga oshirilgan.

S.F.Nabavi, M.A.Ebrahimzadeh, S.M.Nabavi, B.Eslami va A.Dehpourlar (2010) tadqiqotlarida mazkur oʻsimlikning antioksidant va antigemolitik xususiyatlari ochib berilgan. M.Jahromy, A.Mohajer, L.Adibi va S.Khakpourlar (2015) oʻsimlikning ildizidan tayyorlangan ekstrakti jismoniy chidamlilik va charchoqqa qarshi taʼsiri boʻyicha tadqiqotlar olib borib, ananaviy xalq tabobatida uning jismoniy chidamlilik va energiya koʻtaruvchi xususiyatlari uchun ishlatilishini ilmiy asoslab bergan.

Bibliografik manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, *B. multifida* oʻsimligi xalq tabobatida qadimdan qoʻllanib kelinadi hamda mazkur tur boʻyicha dunyo miqyosida qator fitokimyoviy tadqiqotlar amalga oshirilgan. *B. multifidaning* farmakologik faolligi turli biologik modellar asosida, xususan *in vivo* va *in vitro* sharoitlarda keng qamrovda oʻrganilgan.

O'zbekistonda *B. multifida* turini o'rganish bo'yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar D.Seydemetov (1983) tomonidan olib borilgan bo'lib, unda mazkur o'simlikning ayrim biologik xususiyatlari hamda undan foydalanish istiqbollari yoritilgan. Keyinchalik A.Arifxodjayev va bosh., (1985, 1986, 1993, 1994) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ushbu tur tarkibidan alkaloidlar, jumladan vazitsin, shuningdek ayrim polisaxaridlar va peptid tabiatli moddalar ajratib olinganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, A.Arifxodjayev (1993) tomonidan bioorganik kimyo hamda tabiiy va fiziologik faol moddalari ustida tadqiqotlar olib borib tarkibida saponin saqlashini aniqlagan. *B. multifida* va *Allochrysa gypsophilloides* turlari tarkibidagi polisaxaridlarning struktur tuzilishi birinchi marotaba tizimli ravishda o'rganilgan.

O'zbekiston florasida uchraydigan, yetarli darajada o'rganilmagan hamda noyob biologik xususiyatlarga ega bo'lgan yovvoyi dorivor o'simlik – *B.multifidaning* morfobiologiyasini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi. Xususan, Urgut botanik-geografik rayoni sharoitida mazkur turning o'simliklar qoplamidagi o'rnini aniqlash, uning ontogenezi davrlari va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, morfobiologik xususiyatlarini yoritib berish hamda kimyoviy tarkibini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *B. multifidaning* morfobiologiyasini kompleks o'rganish nafaqat nazariy botanika uchun, balki amaliy ekologiya, dorivor o'simlikshunoslik va tabiiy resurslarni boshqarish sohalari uchun ham dolzarb va zarur ilmiy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq №SBio-03 "Janubi-G'arbiy O'zbekiston florasining bioxilma-xilligini o'rganish, innovatsion tadqiqotlar o'tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *B.multifidaning* morfobiologik xususiyatlarini, ontogenezi va o'simliklar qoplamida tutgan o'rnini, kimyoviy tarkibini aniqlash hamda muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

B. multifidaning morfobiologik ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish;

laboratoriya va dala sharoitlarida urug' unish biologiyasini o'rganish;

B. multifidaning o'simliklar qoplamida tutgan o'rnini, fitotsenozini o'rganish, assotsiatsiya jamoalarini aniqlash;

B. multifidaning ontogenezi davri va bosqichlarini aniqlash;

gullash biologiyasini o'rganish, fenologik kuzatishlar olib borish;

mahsuldorlik ko'rsatkichlarini tabiatda va tajriba maydonida aniqlash;

B. multifidaning yer ustki va yer ostki biomassasining kimyoviy tarkibini o'rganish;

B. multifida o'rganilgan hududlar xaritasini tuzish muhofaza qilish choratadbirlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Biebersteiniaceae oilasi, *Biebersteinia* Steph. turkumiga mansub *Biebersteinia multifida* DC. turi olingan.

Tadqiqotning predmetini *B. multifida*ning morfobiologik ko'rsatkichlari, urug' biologiyasi, fitosenozi, assotsiatsiya tarkibi, ontogenezi, fenologiyasi, kimyoviy tarkibi va muhofaza choralari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada morfologik, geobotanik, biometrik, ontogenetik, statistik, dala va laboratoriya tajribalari, marshrutli, yarim statsionar dala tadqiqotlari, hamda raqamli kartografiya usulida xarita tuzishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Biebersteinia multifida urug'larining laboratoriya va dala sharoitidagi unish biologiyasi qiyosiy baholanib, ularning optimal unish sharoitlari hamda unish dinamikasi ilmiy jihatdan asoslangan;

*B. multifida*ning Kuxiston okrugi Urgut botanika-geografik rayonidagi fitotsenotik tarqalish qonuniyatlari aniqlanib, uning ishtirokida shakllangan 4 ta yangi o'simlik assotsiatsiyasi tavsiflandi hamda senopopulyatsiyalarining ontogenetik spektriga ko'ra normal va regressiv holatlari baholangan;

ilk bor *B. multifida*ning ontogenezi to'rt davr va tegishli ontogenetik bosqichlar asosida tavsiflanib, ko'p yillik dala kuzatuvlari natijasida tabiiy sharoitdagi umr davomiyligi 20-23 yil ekanligi aniqlandi hamda ekologik strategiyasi tipik patiyent tur ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan;

tabiiy va introduksiya sharoitida *B. multifida*ning sutkalik hamda mavsumiy gullash biologiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, generativ rivojlanishining ekologik omillarga bog'liq qonuniyatlari ochib berilgan;

O'zbekiston sharoitida tabiiy va madaniy sharoitlarda *B. multifida*ning urug' mahsuldorligi hamda yer ustki va yer ostki biomassasi qiyosiy baholanib, introduksiya sharoitida mahsuldorlik ko'rsatkichlarining tabiiy populyatsiyalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishi ilmiy jihatdan asoslangan;

B. multifida biomassasining biokimyoviy tarkibi kompleks baholanib, undagi erkin aminokislotalar, makro, mikro va ultramikroelementlar, suvda eruvchi vitaminlar, uglevodlar, oqsil hamda flavonoidlarning tarkibiy ko'rsatkichlari aniqlangan;

Zarafshon tizmasidagi tadqiq etilgan tabiiy tarqalish hududlari xaritalashtirilib, senopopulyatsiyalarining holati va fitotsenotik xususiyatlari kompleks baholandi hamda turni muhofaza qilish va biologik resurslaridan barqaror foydalanishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ilk bor Samarqand viloyati sharoitida o'simlik urug'larining biologik xususiyatlari o'rganilib (optimal unish harorati 20°C, ekish muddatlari oktyabr-noyabr ekish chuqurligi 1,5-2,1 cm, ekish zichligi 1m²da 22-24 tup), ko'paytirishning samarali usullari ishlab chiqilgan;

*B. multifida*ning assotsiatsiyalari va jamoalar tarkibini o'rganish natijasida tabiiy genofondini saqlab qolish, fitotsenozda o'simliklar o'rtasidagi gorizontal va vertikal o'zaro ta'sirlarni aniqlash, shuningdek urug'laridan foydalanib regressiv

holatdagi senopopulyatsiyalarni holati normal senopopulyatsiyalarga o'tishi aniqlanilgan;

B. multifida ontogenezining barcha bosqichlari o'rganilib, yovvoyi populyatsiyalar holatini baholash, turning o'sish dinamikasi va yoshini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan;

kimyoviy tarkibi ontogenez bosqichlari kesimida aniqlanganligi, o'simlikni farmatsevtika mahsuloti sifatida qaysi yilida, qachon, qaysi vegetatsiya fazasida biomassasini yig'ib olish imkoniyati qulay ekanligi bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Dissertatsiyada floristik va geobotanik tadqiqotlarning zamonaviy usullari qo'llanilganligi, olingan natijalarning yetakchi mahalliy hamda xorijiy ilmiy nashrlarda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi jurnallarda va Scopus xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidagi Q1 kvartil darajasiga ega bo'lgan jurnalda chop etilganligi, ma'lumotlarning statistik tahlil qilinganligi, hamda turni O'zbekiston milliy gerbariy fondida saqlanayotgan noyob ilmiy obyekti namunasi bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarining tegishli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi, ishning davlat ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Samarqand viloyati sharoitida tarqalgan *B. multifida* bilan birga o'sadigan o'simliklar jamoalarining fitotsenologik xususiyatlari o'rganilib, to'rtta yangi assotsiatsiya aniqlanganligi hamda senopopulyatsiya tiplari belgilanganligi bilan ifodalaniladi. Shuningdek, tabiiy sharoitlarda va tajriba maydonchalarida o'simlikning ontogenez davrlari va bosqichlari, morfobiologik hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlari, urug' biologiyasi har tomonlama tadqiq etilib, kimyoviy tarkibi aniqlangan va ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *B. multifidaning* morfobiologik xususiyatlari chuqur o'rganilganligi asosida, uni muhofaza qilish, ratsional foydalanish, urug'larini *in situ* va *ex situ* sharoitlarida qayta ekish orqali tabiiy populyatsiyalarini tiklash, saqlab qolish va ko'payishini ta'minlash, shuningdek madaniylashtirish asosida yetishtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *B. multifidaning* morfobiologik xususiyatlarini, ontogenezi va o'simliklar qoplamida tutgan o'rnini aniqlash, kimyoviy tarkibini o'rganish hamda muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan natijalar asosida:

Samarqand viloyat davlat o'rmon xo'jaligi, hamda Omonqo'ton milliy tabiat bog'i hududidan turning ekologik guruhlar, fitotsenologiyasi, o'sish va rivojlanish dinamikasi, yer ustki va yer ostki hamda urug' hosildorligi, urug'larining laboratoriya va dala sharoitlarida unib chiqish darajalari, fenologik xususiyatlari, gullash va changlanish imkoniyatlari, ekologik-geografik tamoyillari asoslangan bo'lib ajratib olingan 750 m² tajriba maydonchalarida o'simlikni urug'idan va ildizidan ekib uni morfobiologik xususiyatlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

iqlim o'zgarishi vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi va Omonqo'ton milliy tabiat bog'i amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023-yil 30-dekabrda 03-03/3-8690-sonli ma'lumotnomasi). Natijada *B. multifida*ning senopopulyatsiyalar holatini monitoring qilish, tabiiy populyatsiyalarini saqlab qolish, keskin kamayib ketishining biotik, antropogen sabablarini aniqlash va uning oldini olish hamda muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

o'simlikning biologik xususiyatlarini o'rganish asosida o'simlik populyatsiyalari maydoni kamayib borayotganligi natijasida turning reintroduktsiya tiklanish jarayoni yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda O'rmon xo'jaligi agentligining Omonqo'ton o'rmon xo'jaligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligining 2023-yil 30-dekabrda №03-03/3-8690-son ma'lumotnomasi). Natijada o'rmon xo'jaligi sharoitida *Biebersteinia multifida*ning dastlabki onalik plantatsiyalarini yaratish, resurslardan oqilona foydalanish hamda qayta tiklash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari bo'yicha 2 ta xorijiy va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy Scopus xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "*Biebersteinia multifida* DC. bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar" deb nomlangan birinchi bobi ikki bo'limdan iborat bo'lib unda dunyo bo'ylab va O'zbekistonda *Biebersteinia* turkumi turlari, *B. multifida* ustida olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Bobning birinchi bo'limi "*Biebersteinia* Stephan turkumi turlarining botanik tavsifi, sistematik o'rni" deb nomlanib unda filogenetik, kariomorfologik, morfobiologik, embriologik,

anatomik, kimyoviy va molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida sistematik oʻrni, uchrash mintaqalari toʻgʻrisidagi malumotlar yoritilgan.

Bobning ikkinchi boʻlimi “Dorivorlik xususiyatlari va zamonaviy tadqiqotlar” deb nomlanib, unda turkumi turlaridan ajratilgan tabiiy mahsulotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan. Shu bilan birga *B. multifida*ning qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda qoʻllanilganligi toʻgʻrisidagi malumotlar yoritilgan.

Hozirgi kunda *in vivo* va *in vitro* sharoitida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar asosida dorivorlik xususiyatlari batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning “Hududning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari” nomli ikkinchi bobi ikki boʻlimdan iborat. “Tadqiqot olib borilgan hududning fizik-geografik tavsifi va iqlim sharoitlari” nomli birinchi boʻlimida Samarqand viloyatining iqlimi keskin kontinental, quyosh radiyasi kuchliligi, sutkalik va mavsumiy oʻzgarib turishi, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz mavsumi hamda sovuq qish bilan tavsiflanadigan Urgut botanik-geografik rayoni sharoitlari berilgan.

Bobning ikkinchi boʻlimi “Tadqiqot obyekti va uslublari” deb nomlanib unda tadqiqot obyekti Biebersteiniaceae oilasiga mansub qontepar - *Biebersteinia multifida* DC. turning morfobiologiyasi va tadqiqot uslublari bagʻishlanadi (1-rasm).




1-rasm. *Biebersteinia multifida* DC. oʻsimligining ilustratsion rasmi (cm da).

a-umumiy koʻrinishi (g_1), b-ildizi, c-generativ novdasi, d-gul gʻunchalar, e-guli, f-gulkosachabarglar, g-gultojobarglar, h-changdonlari, i-pishib yetilmagan urugʻlar, j-yetilgan meva, k-chatnagan koʻsaklar, l-pishib yetilgan urugʻ.

Ilmiy tadqiqotlar davomida keng foydalanib kelinayotgan zamonaviy va klassik uslublardan foydalanildi. Fitosenoz tarkibi, ontogenez bosqichlarini organishda O.Drude (1913), T.A.Rabotnov (1950, 1960, 1998.), A.Uranov (1967), P.D.Yaroshenko (1961), I.G.Serebryakov (1952), L.G.Ramenskiy (1929), K.Raunkiye (1937), L.A.Jukova (1988) metodlaridan, o'simlik turlarini aniqlashda "O'rta Osiyo o'simliklari aniqlagichi" hamda *Plants of the World Online* saytlaridan foydalanildi. Dala tadqiqotlari A.B.Sherbakov, S.R.Mayorov (2006), geografik tarqalishi bo'yicha K.Sh.Tojibayev va boshqalar (2016) tomonidan ishlab chiqilgan botanik-geografik klassifikatsiyasi asosida, reintroduktsiya V.N.Sukachev (1934), P.D.Yaroshenko (1961), urug' unuvchanligi T.A.Rabotnov (1960), M.G.Nikolayeva (1985), M.K.Firsova (1959), gullash biologiyasini A.N.Ponomarev (1960), A.A.Kazakovalar (1950), fenologik kuzatishlar I.N.Beydeman (1974), fenospektr tuzishda G.E.Shults (1966), biologik tadqiqotlarda matematik tahlil G.N.Zaytsev (1991), urug' mahsuldorligi O.A.Ashurmetov va X.Q.Qarshiboyevlar (2008), yer ustki va yer ostki biomassasini aniqlashda N.S.Konyushkov (1961) uslublardan foydalanib o'rganildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "*B. multifida* urug'larining unish biologiyasi" deb nomlanib, bob uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'limi "Urug'larni laboratoriya sharoitida unuvchanligi"ga bag'ishlangan.

Urug'lari laboratoriya sharoitida +5°C dan boshlab unib chiqa boshlaydi va bunda 13,4%, optimal harorat +20°C bo'lib, bunda 75,8% unib chiqdi, yuqoriroq 25-40°C haroratlarda esa, urug'lar 3-kundan unib chiqishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Laboratoriya sharoitida *B. multifida* urug'larining unuvchanligi.

Bobning ikkinchi bo'limi "*B. multifida* urug'larining suv bilan to'yinishi va hayotchanlik ko'rsatkichlari" deb nomlanadi. Urug'larning suv shimishi quruq og'irligiga nisbatan 49,25% va suv qaytarish xususiyati dastlabki 6-8 soatlarda sodir bo'lib, urug'ning havoda quritilgan og'irligiga nisbatan 77,89-71,53% ekanligi kuzatildi.

Bobning uchinchi bo'limi "Urug'larni dala sharoitida unuvchanligi"ga bag'ishlangan bo'lib, dala sharoitida unuvchanlik oktabr va noyabr oylarida eng yuqori, jumladan Omonqo'ton milliy tabiat bog'i hududida 67,8-67,6%, ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi sharoitida esa, 64,7-69,9% unuvchanlik

kuzatildi. Dekabr, fevral, mart oylarida unib chiqish foizi ancha past 14-28% tashkil etdi. Yosh maysalarning yashovchanligi 85,5-98,3% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "*B.multifidaning* fitosenotik tavsifi, ontogenezining davr va bosqichlari" deb nomlanib unda *B. multifidaning* o'simliklar qoplamida tutgan o'rni hamda ontogenez davr va bosqichlariga bag'ishlangan bo'lib to'rt bo'limdan iborat.

Bobning birinchi "*B.multifidaning* o'simliklar qoplamida tutgan o'rni" bo'limida Samarqand viloyati Kuxiston okrugining Urgut botanik-geografik rayoni Omonqo'ton hududidagi shimoli-g'arbiy qiyalikdagi tog' yon bag'irlarida o'sadigan o'simliklar jamoalari fitosenoz tarkibi va assotsiatsiyalarining umumiy xususiyatlari keltirilgan.


Fitosenotik dala tadqiqotlari natijasida o'rganilgan xududlarda 4 ta yangi assotsiatsiyalar aniqlangan:

1-assotsiatsiya: *Biebersteinio multifidae-Arctietum umbrosae* assosiasiyasi turlari tarkibi, shimoliy-g'arbiy qiyalik (Toksoy, Omonqo'ton, h 1513-1663 m).

2-assotsiatsiya: *Poo bulbosae-Biebersteinietum multifidae* assosiasiyasi turlari tarkibi, shimoliy-sharqiy qiyalik (Olchabuloqsoy, Omonqo'ton, h 1469-1607 m).

3-assotsiatsiya: *Elymo repentis-Caricetum pachystilis* assosiasiyasi turlari tarkibi, shimoliy-g'arbiy qiyalik (Qumbelsoy, Taxti Qoracha dovoni, Urgut tumani h 1539-1556 m).


4-assotsiatsiya: *Carici pachystilis-Phlomidetum salicifoliae* assotsiatsiyasi turlari tarkibi (Yettiuylisoyning janubi-sharqiy yonbag'rida) Navoiy f/x, h 994-1100) aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Aniqlangan assotsiatsiyalarda uchraydigan turlarning mo'lligi boyicha foiz ko'rsatkichlari.

Fitosenotik tadqiqotlar natijasida o'rganilgan hududlar bo'yicha T.A.Rabotnovning ontogenetik tahlil spektoriga asoslanib senopopulyatsiya tipi aniqlandi. Bunga muvofiq Toksoydagi hamda Olchabuloqsoydagi fitotsenozlarda ishtirok etayotgan o'simliklarni yoshi va rivojlangan individlarni inobatga olib, normal senopopulyatsiya deyish mumkin. Qumbelsoy va Yettiuylisoydagi fitotsenozlar tarkibidagi o'simlik individlari ko'proq sub-senil hamda senil davriga o'tganligini inobatga olsak regressiv senopopulyatsiya ekanligi namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobining keying bo'limlari *B. multifida* ontogenezining davr va bosqichlariga bag'ishlanadi. Bunda *B. multifida*ning ontogenezi quyidagi davr va bosqichlarni qamrab olishi aniqlandi: 1. Latent davri (se); II. Virginil davrining (v) maysa (p), yuvenil (j), immatur (im), virginil (v) bosqichlari; III. Generativ (g) davrining yosh generativ (g_1), yetuk generativ (g_2), qari generativ (g_3) bosqichlari; IV. Senil davri (S) - sub-senil (Ss) va senil (S) bosqichlari (4-rasm).



4-rasm. *B. multifida* ontogenezida kuzatiladigan bosqichlar.

Bobning ikkinchi bo'limi "Latent davri, verginil davr va uning bosqichlari" deb nomlanib latent davri (se) davri yoki tinim davri urug'lari pishib yetilgandan keyin bir va ikki yil muddatni o'z ichiga olib, bu davrda urug'lar stratifikatsiya (tinim) davrini o'taydi. Urug'larning tinim davri 1 yilgachani tashkil etib unuvchanligi 4 yilgacha.

B. multifida dalada ekib, undirilgandan keying ya'ni ikkinchi hamda keyingi yillardagi latent (se) davri yo'g'on – seret tuganaksimon tarvaqaylagan ildiz holatida bo'ladi.

Virginil davri (v) (maysa bosqichi (p)). Virginil (v) davrining maysa bosqichida – urug' palla barglarning paydo bo'la boshlashi kuzatiladi.

Dastlabki paydo bo'lgan urug' palla barglarning uzunligi 1,5-2,1 cm, eni esa 0,7-0,9 cm ni tashkil etadi. Bu pallabarglar *B. multifida*da birinchi yil vegetatsiya

davrini oxirigacha saqlanib qoladi (85-90%). Virginil davrining keyingi yuvenil bosqichi boshlanishidan oldin, unib chiqqandan 35-37 kun o'tib urug'palla barglar o'lchami uzunligi 1,8-2,5 cm ga yetadi, eni esa, 0,8-1,1 cm ni tashkil qilib o'zining to'liq shaklini namoyon qiladi. Maysa bosqichining oxirida urug'palla bargli maysalardan 2,9-3,7 mm uzunlikdagi epikotil shakllanib, o'simta ya'ni birinchi barg paydo bo'la (10-15%) boshlaydi. Urug'pallabargli maysa ildizining kattaligi no'xatdek keladigan kattalikda bo'ladi. Undan erta bahorda bitta ba'zilaridan ikkita chin barglar paydo bo'ladi. Bu davr o'simlikni birinchi vegetatsiya yilining oxirida va ikkinchi yilining boshida kuzatiladi, yuvenil bosqichi boshlanadi.

Virginil (v) davrining **Yuvenil (j)** bosqichi. Qonteparni 1-3 yillariga to'g'ri keladi. Bu bosqich 1-3 yil davom etadi. 1-2 tagacha chin barg hosil qiladi, uzunligi 12-22 cm ni tashkil etganligini aniqladik. Tuproq ostida uzunligi 7-11 cmli, og'irligi 7,9-13,8 gr keladigan ildizi saqlanib qoladi (4-rasm).

Virginil (v) davrining **Immatuur (im)** bosqichi o'simlik vegetatsiyasining uchunchi yili ba'zi o'simliklarda to'rtinchi yilidan boshlanadi. Bosqich 1-2 yil davom etadi. O'simlikda 2-4 tagacha voyaga yetgan o'simlik bargiga o'xshash barglar hosil bo'ladi. Barglarining uzunligi 20 cm dan 29 cm gacha bo'ladi. Vegetatsiyasining boshida shakllana boshlagan poya vegetatsiya oxirida 5,2-7,5 cm gacha o'sib, unda oddiy bir hujayrali tuklar shakllanadi. Tuganaksimon ildizining ogirligi 16,0-20,2 gr ni tashkil etdi.

Generativ oldi – Virginil davrining *Virginil (v)* bosqichi. O'simlik hayotining 5-6 yillaridan boshlanib, bosqich 1-2 yil davom etadi, 5-7 tagacha barg hosil qiladi, barglarining uzunligi 6,5 cm dan 28-32,0 cm gacha bo'ladi.

Poyasi nisbatan uzunlashadi (23-25 cm), yolg'on g'unchalar paydo qiladi, bu gunchalar gullamasligi va urug' hosil qilmasligi aniqladik. Ushbu bosqichda ildizining diametri 3,7-4,9 santimetrgacha yetadi.

Bobning uchinchi bo'limi "Generativ davr bosqichlari" ga bag'ishlangan.

Generativ (g) davr. Bu davr quyidagi bosqichlar kuzatildi: 1) *Yosh generativ bosqich (g_1)*. 2) *Yetuk generativ bosqich (g_2)*. 3) *Keksa generativ bosqich (g_3)*.

Generativ davri *B. multifidaning* yettinchi yillariga to'g'ri keladi. Dastlab morfologik belgilariga ko'ra virginil bosqichiga o'xshash, ammo sezilmaydigan darajada gul g'unchalari shakllangan yosh generativ o'simliklarga xos tuplar shakllanadi.

Yosh generativ (g_1) bosqichi. *B. multifidada* 7-9 yoshlarida kuzatiladi. Bu bosqich 3-4 yil davom etishini aniqladik. O'simlik gullash fazasiga o'tgan bo'lsada gullar soni dastlabki yillarida uncha ko'p bo'lmaydi (21-47 tagacha).

Hududlar kesimida kuzatishlarimiz natijalariga ko'ra g_1 bosqichida o'simlik bo'yi o'rtacha 35,5-38,3 cm ni tashkil etdi, barglari soni esa 6-8 ta, barglarining o'sish dinamikasi 43 kun ichida 25-28 cm gachani tashkil etishi aniqlandi. Seret tuganaksimon ildizining diametri 5,1-7,9 cm gacha yetadi. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ekilgandan keyin 7-9 yildan boshlab, bir tup o'simlikning ildiz massasi 35-55 gramgachani tashkil etadi.

Shu bosqichidan boshlab, tuganaksimon ildizini va yer ustki biomassasini xalq tabobati hamda farmatsevtika sanoatida foydalanish uchun yig'ib olish

mumkinligini bunda yuqori sifatga ega farmatsevtik maxsulot olishga erishish mumkinligini aniqladik.

Yosh generativ (g_1) bosqichida poyasining o'sish dinamikasi eng yuqori o'sish ko'rsatkichi yalpi gullash davrida kuzatildi 66,31%.

Yetuk generativ (g_2) bosqich. Bu bosqich o'simlikni 9-14 yoshiga to'g'ri keladi. Bu bosqich 3-5 yil davom etadi. Ushbu bosqich boshlanganligining asosiy belgilaridan biri *B. multifida*ning tuganagida hosil bo'lgan yon kurtaklar hisobidan poyalar sonining ko'payishi hisobiga urug' mahsuldorligi eng yuqori bo'lishini aniqladik. Shu bilan birga asosiy poyada yon generativ novdalar ham hosil bo'ladi ularning soni 2 tadan 5 tagacha bo'lib, uzunligi o'rtacha 5,6-14,5 cm gacha, ko'saklar soni 45-154 tagacha bo'lishini aniqladik. Barglarining o'sish dinamikasi 6 cm dan 36 cm gacha o'zgarib borib ularning soni 11-17 tani tashkil etadi. Bu bosqichning oxirgi yillariga kelib, tuganaksimon ildizi ancha yiriklashadi, ildiz massasi 62-166 gramni tashkil etib, o'zak qismida to'q jigarrang dog' hosil bo'lib yil sayin yiriklashib boraib partikulyatsiya (3-7%) boshlanganligidan dalololat beradi (5-rasm).



5-rasm. *B. multifida* ning ontogenez bosqichlarida partikulyatsiya jarayoni. (yo'g'on - seret ildiz tuganagining ko'ndalangiga kesmasi).

Poya va barglarning o'sish va rivojlanish dinamikasi *yetuk generativ (g_2)* bosqichida boshqa (g_1, g_3) bosqichlariga nisbatan ancha yuqoriligi aniqlandi.

O'sish dinamikasi yalpi gullash davrida 68,28% ni tashkil etdi.

Ildizning og'irligi *o'rta generativ* bosqich oxiri *qari generativ* bosqich boshlanish yillarida 62-166 gr gacha yetishi mumkin.

Qari generativ (g_3) bosqich – o'simlikni 15-17 yoshlariga to'g'ri kelib, bu bosqichi 3-4 yil davom etadi. *B. multifida*ning ildiz massasi 170-220 gr gacha bo'ldi. Partikulyatsiya jarayoni dastlabki yillarida 15-20% ni tashkil etdi.


Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra *B. multifida* poyasining *keksa generativ - g_3* bosqichida o'sish dinamikasi yalpi gullash davrida 64,81% ni tashkil etdi.

To'rtinchi bobning to'rtinchi bolimi “Senil davrining bosqichlari” deb nomlanib, bosqich asosan 1-2 yil, juda kamdan-kam hollarda 3-4 yil davom etishi mumkin. O'simlikda generativ organlarning hosil bo'lishi sustlashib, poyalar va gul hosil bo'lish va urug' hosil bo'lish jadalligi keskin kamayadi, yog'ingarchilik

va boshqa omillar taʼsiriga juda chidamsiz boʻlib, bunday tuplar kelgusi yilda nobud boʻladi umuman unib chiqmadi.

Dastlabki yillarida oʻsimlik 2-3 ta barg hosil qilishini kuzatdik. Ildiz massasi 90-125 gr ni tashkil etadi. Ildizda partikulatsiya jarayoni dastlab 50-65% ni tashkil etishi aniqlandi.

